

O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARI O'RTASIDAGI TILGA OID LINGVISTIK BOG'LIQLIKLAR

Maxkamova Mahmuda

O'zDJTU Ingliz tili 1-fakulteti Umumiy tilshunoslik kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz maqollarining qiyosiy-lingvistik tahlili olib borildi. Tadqiqotda maqollarning semantik, strukturaviy hamda lingvokulturologik xususiyatlari aniqlanib, har ikki tilda mehnat va natija o'rtasidagi sabab – oqibat munosabatining ifodalanishi yoritildi. O'zbek va ingliz tillarining tipologik farqlari mos ravishda agglutinativ va analitik xususiyatlari maqollarning grammatik tuzilishiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilindi. Shuningdek, maqollardagi metafora va obrazlilik masalasi milliy-madaniy muhit bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari maqollarda semantik umumiylik va funksional yaqinlik mavjud bo'lishiga qaramay, ularning strukturaviy va obrazli jihatdan farqlanishini ko'rsatadi. Ushbu maqola tilshunoslik va madaniyatlararo muloqot tadqiqotlari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: qiyosiy tahlil, semantika, frazeologiya, lingvokulturologiya, tipologiya, paremiologiya, qiyosiy tilshunoslik, strukturaviy tahlil, frazeologik birlik, metafora va obrazlilik, til tipologiyasi, agglutinativ til, analitik til, madaniyatlararo muloqot.

Аннотация. В статье представлен сопоставительный лингвистический анализ узбекских и английских пословиц. Исследуются их семантические, структурные и лингвокультурологические особенности, а также способы отражения универсальных ценностей, в частности причинно-следственной связи между трудом и результатом. Анализируются типологические различия узбекского агглютинативного и английского аналитического языков и их влияние на грамматическое оформление пословиц. Особое внимание уделяется метафоре и образности, которые рассматриваются в контексте национально-культурной среды. Результаты исследования показывают, что при наличии семантической общности и функциональной близости пословицы сохраняют структурные и образные различия. Материалы статьи представляют интерес для теоретической лингвистики и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: пословица, паремология, сопоставительное языкознание, семантический анализ, структурный анализ, фразеологическая единица, лингвокультурология, метафора и образность, типология языка, агглютинативный язык, аналитический язык, межкультурная коммуникация

Abstract. This article presents a comparative linguistic analysis of Uzbek and English proverbs. The study explores their semantic, structural, and linguacultural features, focusing on the expression of universal values, particularly the cause-and-effect relationship between labor and result. Typological differences between the Uzbek agglutinative language and the English analytic language are examined in relation to the grammatical structure of proverbs. Special attention is paid to metaphor and imagery as reflections of national and cultural contexts. The findings indicate that despite semantic universality and functional similarity, Uzbek and English proverbs demonstrate noticeable structural and figurative differences. The research contributes to theoretical

linguistics and intercultural communication by highlighting the interaction between language, culture, and worldview.

Keywords: proverb, paremiology, contrastive linguistics, semantic analysis, structural analysis, phraseological unit, linguaculturology, metaphor and imagery, language typology, agglutinative language, analytic language, intercultural communication.

Kirish. Barchamizga ma'lumki, maqollar – xalqning asrlar davomida shakllangan tafakkuri, hayotiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini mujassamlashtirgan ixcham, obrazli va mazmunan chuqur til birliklaridir. Shu bilan birgalikda maqollar til va madaniyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Har bir til tizimida maqollar nafaqat lingvistik hodisa, balki madaniy va kognitiv birlik sifatida ham namoyon bo'ladi. Amerikalik mashhur paremiolog Wolfgang Meyderning ta'kidiga ko'ra, maqollar qadimdan tillarni o'qitishda foydalanib kelingan va bu holat davom ettirilishi lozim, chunki ular bilim berishning asosiy didaktik vositalaridan biri hisolanadi¹. Uning fikricha, maqollar bir tilda gaplashuvchi uchun barchaga xos bo'lganligi sababli, inson tabiati va umuman dunyo haqidagi umumiy bilimlarni berishning samarali vositasidir².

Asosiy qism. Xorijiy tillarni o'qitishda esa ular o'ziga xos madaniy va metodik rol o'ynaydi. Jumladan, ingliz tilini o'qitishda ham maqollar o'quvchilarning so'zlashuv qobiliyatiga samarali tasir ko'rsatadi. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz maqollari o'rtasidagi tilga oid (lingvistik) bog'liqliklar, ularning semantik, leksik va strukturaviy xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi.

Maqollarning lingvistik tabiati shundan iboratki, tilshunoslik nuqta'i nazaridan maqollar frazeologik birliklarga yaqin bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega:

- Barqarorlik (tarkibiy qismlari o'zgarmaydi)
- Ko'chma ma'no (metafora va ramziy ifoda)
- Ixchamlik va umumlashgan mazmun.

O'zbek va ingliz tillaridagi maqollar ushbu umumiy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularning ifodalanish shakli til tizimining o'ziga xos jihatlari bilan belgilanadi. Semantik o'xshashlik va umumiy g'oyalar asosida ko'radigan bo'lsak, ko'plab o'zbek va ingliz maqollari mazmun jihatidan mos keladi, ya'ni turli tillarda bir xil hayotiy haqiqatni ifodalaydi:

• O'zbekcha: Mehnat qilgan to'yar.
• Inglizcha: No pain, no gain.
• O'zbekcha: Gapdan ish yaxshi.
• Inglizcha: Actions speak louder than words.
• O'zbekcha: Tuxumdan jo'ja chiqmay sanama.
• Inglizcha: Don't count your chickens before they hatch.

Bu yerda har ikkala tilda ham mehnat va natija o'rtasidagi sabab-oqibat munosabati aks etadi. Mazkur o'xshashlik insoniyat uchun universal bo'lgan qadriyatlar til orqali qanday aks etishini ko'rsatadi.

¹ Wolfgang Milder (Ed.) "Wise Words. Essays on the proverbs", New York, Garland publishing 2003, p 17.

² Wolfgang Milder (Ed.) "Wise Words. Essays on the proverbs", New York, Garland publishing 2003, p 20.

Strukturaviy va grammatik farqlarga asoslanadigan bo'lsak, o'zbek tili agglyutinativ, ingliz tili esa analitik til bo'lgani sababli, maqollarning grammatik tuzilishida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rish mumkin.

- O'zbek maqollari ko'pincha fe'l bilan yakunlanadi:

Yaxshi niyat – yarim davlat.

- Ingliz maqollari esa ko'proq ega-kesim tartibiga asoslanadi:

Honesty is the best policy.

Bu holat maqollarda ham tilning umumiy grammatik modeli saqlanib qolishi uchun xizmat qiladi. Metafora va obrazlilik nuqtai nazaridan esa, har ikki tilda maqollar obrazli tafakkur mahsuli hisoblanadi, ammo obraz tanlashda milliy-madaniy muhitga alohida ahamiyat berish kerak. Misol o'rnida o'zbek maqollarida qishloq hayoti, tabiat, chorvachilik obrazlari ko'p uchraydi:

- **Sigirni sog'gan biladi, sutini ichgan emas.**
- **Bug'doy eksang, kuzda ek, Yaxshi haydab, bo'zga ek.**

Ingliz maqollarida esa dengiz, savdo, shahar hayoti bilan bog'liq obrazlar ilgari suradi:

- **Don't put all your eggs in one basket.**
- **Time is money.**

Bu holat til va madaniyatning o'zaro uzviy bog'liqligini xalqlarning an'alarida, qadriyatlarida, so'zlari va maqollarida yaqqol namoyon etishini ko'rishimiz mumkin. Ba'zi maqollar to'liq leksik ekvivalentga ega bo'lmasa-da, ularning funksional ma'nosi qisman mos keladi:

- Sabr tagi – sariq oltin
- Patience is a virtue

Bu yerda leksik birliklar turlicha bo'lsa-da, “sabr” so'zining ijobiy fazilat sifatidagi bahosi har ikki tilda bir xil ma'noda kelishini ko'rish mumkin.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, har bir millatning o'ziga xos madaniyat asosida maqollari ham shakllanadi va shu millatning madaniy merosiga aylanadi. Maqollarda asosan o'sha xalqning urf – odatlari, an'analari, quvonchi va qayg'usi o'z aksini topadi. Boshqa xalqlarning maqollari boshqa tilga tarjima qilinganda, milliylikka alohida e'tibor berilish katta ahamiyat kasb etadi. O'zbek va ingliz maqollarini qiyosiy tahlil qilish, ular o'rtasidagi semantik umumiylik, funksional yaqinlik, biroq, strukturaviy va obrazli farqlilik mavjudligini ko'rsatadi. Bu farq va o'xshashliklar tillarning tipologik xususiyatlari hamda milliy-madaniy tajribasi bilan bevosita bog'liq. Maqollarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlara muloqot uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fernando, P. (1996). Idioms and proverbs in contrastive perspective. Journal of Pragmatics.
2. Harvard University. (n.d.). Uzbek national folk proverbs in English verse. Harvard University Press.
3. Lado, R. (1957). Linguistics across cultures. University of Michigan Press.
4. Mahmudov, N. (2006). Til va madaniyat. Toshkent.
5. Mahmudov, N. (2010). Til va madaniyat (Qayta nashr). Toshkent.
6. Mieder, W. (1994) Wise words: Essays on the proverbs.
7. Mieder, W. (2004). Proverbs: A handbook. De Gruyter.
8. Mirzayev, T., & Sarimsoqov, B. (1978). Toshkent: Fan nashriyoti.

9. Norrick, N. (1985). How proverbs mean: Semantic studies. *Proverbium Journal*.
10. Qodirova, D. (2020). Maqollarda sabab–oqibat munosabatining ifodalanishi. *Filologiya masalalari*.
11. Rahmatullayev, Sh. (1978). O‘zbek frazeologiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti.
12. Rahmatullayev, Sh. (1999). O‘zbek maqollarining frazeologik tabiati. *O‘zbek tili va adabiyoti jurnali*.
13. Yo‘ldoshev, B. (2016). O‘zbek va ingliz maqollarining qiyosiy-semantik tahlili. *Ilmiy maqolalar to‘plami*. Toshkent.